



## LINGVOKULTURALOGIYANING KELIB CHIQISH TARIXI

Muxlisa Sobirjonova<sup>1</sup>, Mohinur Qayumova<sup>2</sup>

<sup>1</sup>Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi  
e-mail: m.sobirjonova11@gmail.com

<sup>2</sup>Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti o'qituvchisi  
e-mail: muhinurqayumova10@gmail.com  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6413553>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 15-mart 2022

Ma'qullandi: 20-mart 2022

Chop etildi: 25-mart 2022

### KALIT SO'ZLAR

Kognitiv tilshunoslik,  
lingvokulturologiya,  
konsept, xususiyat,  
kategoriya,  
madaniyatshunoslik,  
madaniy-mafkuraviy  
mazmun, kompozitsiya.

### ANNOTATSIYA

*Inson o'zida mujassam bo'lgan madaniyati bilan birgalikda, konsept orqali boshqa xalqlarning, millatlarning madaniyatiga, mental dunyosiga murojaat qiladi va o'rganadi. Kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, adabiyotshunoslik kabi fanlarida konseptning izohi turlicha bo'ladi. O'tgan asrning 80-yillariga qadar konsept va tushuncha so'zlari bir-biriga sinonim sifatida ishlatilgan, ammo bugungi kunga kelib konsept tushuncha terminiga nisbatan kengaygan holda ishlatilishini ko'rishimiz mumkin.*

Lingvokulturologiya XX asrning 90 – yillarida tilshunoslik bilan ma'daniyatshunoslik orasida yangi fan sohasi sifatida kirib kelgan. Manbalarda keltirilishicha lingvokulturologiyaga eng dastlabgi asoschilaridan biri V. fon Gumboldt hisoblanadi. Shuningdek, V. A. Maslova ham bu sohaga tadqiqotlar olib borgan. Maslova linguakulturologiya rivojlanishini 3 bosqichga bo'lgan.

1. Birinchi bosqich fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlar hisoblanadi va uning yaratilishiga V. Fon Gumboldt, E. Benvenist, E. Sepir,

L. Vaysgerber va A.A. Potebnya kabi tilshunoslar o'z ishlari bilan katta hissa qo'shganlar;

2. Ikkinchi bosqich bu muhim bosqichlardan biri bo'lib, unda

lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajralib chiqishi ko'zda tutiladi.

3. Uchinchi bosqich lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichidir.

Bizga ma'lumki, XXI asr boshiga kelib lingvokulturologiya dunyo tilshunosligidagi yetakchi yo'nalishlardan biriga aylandi va lingvokulturologiya til va madaniyatning o'zaro aloqadorlikda predmetini tashkil etdi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** Endi biroz konsept tushunchasiga diqqatimizni qaratamiz. Konsept tushunchasi XX asrning birinchi choragida faylasuf S. Askoldov tomonidan fanga kiritiladi. S. Askoldovning fikricha, konseptlar vositasida turli millat vakillari muloqotga kirishadi, shunga ko'ra, konseptlarni yaratish va idrok qilish ikki tomonlama kommunikativ jarayon



hisoblanadi. Lisoniy makonda mavjud bo'lgan bunday tizim dunyo milliy manzarasining o'ziga xosligini belgilaydi.<sup>1</sup>

Konsept lotin tilidagi conceptus – “tushuncha” degan ma’noni anglatadi va ular printsiplar, e’tiqodlar, shuningdek, fikrlarni bir-biriga bog’laydi. Shu bilan bir qatorda, tushunchalar tilshunoslik, falsafa, psixologiya kabi bir qancha fanlar tomonidan o’rganiladi.

Konsept haqidagi mulohazalarga XX asrning birinchi choragida tanqidiy qaraladi, ammo 80-yillarga kelib, bu terminga qayta murojaat qilinadi. Konsept tushunchasiga ikki tomonlama qarash mumkin.

Birinchisi, madaniyat konsept ko’rinishida insonning mental dunyosiga kiradi. Ikkinchidan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va bir-biriga ta’sir ko’rsatadi.

Anglofon til madaniyati tadqiqotchisi professor Yamuna Kachru “til va madaniyat o’rtasidagi munosabat” kabi dalillarga e’tibor qaratadi; matn turlarining madaniy o’ziga xos xususiyatlari” Jumasheva, Sametova, Muktarova, Botirkhan va Sultoniya zovoning maqolasi “madaniyatlar muloqotiga lingvokulturalogik aralashuv”ni o’rganishga bag’ishlangan.

Muayyan tarixiy davrda jamiyat madaniyati bilan uzviy bog’liqlikda sof til hodisalarini ajratib ko’rsatish linguakulturalogik vaziyat terminini tug’dirdi. Bu atama, shuningdek, linguakulturalogik vaziyatni o’rganish

metodologiyasi Shaklein tomonidan “Lingvokulturalogik vaziyat va matnni o’rganish” monografiyasida taklif qilingan. Matn linguakulturalogik vaziyatni o’rganish uchun material sifatida tan olinadi va tahlilning ob’ektivlik darajasi tadqiqotchi tomonidan o’rganilgan matnlar soniga bog’liq.

Lingvokulturalogik vaziyatni tavsiflashda ikkita omil muhim ahamiyatga ega:

1) vaqtinchalik: lingvokulturalogik vaziyat deganda oldingi davrlar tomonidan tayyorlangan va keyingi davrlar uchun asos tayyorlaydigan doimiy o’zgaruvchan jarayon tushuniladi;

2) strukturaviy: lingvokulturalogik vaziyat ma’lum miqdordagi ijtimoiy shakllanishlar, tillar va madaniyatlarni o’z ichiga oladi.

Yuqoridagi barcha xususiyatlar quyidagi ta’rifni shakllantirishga imkon beradi linguakulturalogik vaziyat: “Lingvokulturalogik vaziyat – tarixan shakllangan madaniy hududlar va ijtimoiy muhitdagi tillar va madaniyatlar o’rtasidagi o’zaro ta’sirning dinamik va to’lqinsimon jarayonidir” Lingvokulturalogik vaziyat murakkab; u lingvistik, madaniy, ijtimoiy va etnik vaziyatni o’z ichiga oladi.

Konseptlarni tahlil qilar ekanmiz, har qanday tilda madaniy o’ziga xoslik mavjud. Masalan: non konseptini olsak, o’zbeklar uchun non muhim ozuqa hisoblanadi, ammo boshqa xalqlar uchun non muhim emas. Koreys, yapon, xitoy xalqlari uchun muhim ozuqa non emas guruch hisoblanadi.

N.Yu. Shvedova konseptni tushuncha ekanligini, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks

1 Аскольдов, С. А. Концепт и слово [Текст] / С. А. Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М. Academia, 1997. – С. 267–280.



ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini ta'kidlagan.<sup>2</sup>

Professor N. Mahmudov lingvokulturologiyada konseptning o'rganilishi haqida quyidagilarni yozadi: "Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan konseptning ifodalanishi muammolariga juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda konseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan."<sup>3</sup>

**Muhokama va takliflar.** Shunday qilib, konsept lingvokulturologiyada juda faol qo'llaniladi. Konsept lingvokulturologik birlik sifatida har xil xalqlarning madaniyatlarini o'ziga xos jihatlarini ifodalaydi. Masalan, "o'quv dargohi" konsepti o'zbek kishilarining tafakkurida quyidagicha assotsiatsiyalanadi:

<sup>2</sup> Шведова Н.Ю. Избранные работы. –М. 2005. –С.603.

<sup>3</sup> Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. –№ 5. –Б. 9.

a) ta'lim maskani– bino – ko'p qavatli bino – o'quv zali, sport zal– sinf xonalar – o'quvchi yoki talabalar;

b) katta, kichik, chiroyli, shinam, yorug', yangi, eski;

c) maktab, litsey, kollej, institut, universitet.

Ko'chma ma'noli birliklarni yuzaga chiqaradi: o'quv dargohi bilimdonlari "talabalar", dargohingizga qabul qilganingiz uchun tashakkur, ya'ni "qabulingizga", seni kelin qilaman, bundan buyon mening dargohimda o'qiysan "mening uyimda yashaysan".

Lingvokulturologik konsept etnokulturologik xususiyatga ega bo'lgan va borliq haqidagi funksional ahamiyatga ega bo'lgan madaniyatlar ma'lumotlarini birlashmasidir.

Lingvokulturologik konsept barcha til egalari uchun dunyoqarash modeli vazifasini o'taydi va u milliy xarakterning shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi madaniyat vositasi hisoblanadi. Linguakulturologiyada madaniyat konseptlari alohida tadqiq etiladi. Madaniyatning asosiy konseptlari deganda mavhum otlar, xususan, vijdon, taqdir, g'am, xijron, qismat, iroda, gunoh, yolg'izlik, qonun, erkinlik, ziyolilar, vatan kabilar tushuniladi.

A. Ya. Gurevich madaniyat konseptlarini ikki guruhga bo'lgan:

1) falsafiy kategoriyalar, ya'ni madaniyatning universal kategoriyalari. Masalan: vaqt, makon, sabab, harakat kabi;

2) ijtimoiy kategoriyalar, ya'ni madaniyat kategoriyalari. Masaln: erkinlik, huquq, haqiqat, mehnat, boylik, mulk va boshqalar.<sup>4</sup>

Agar madaniyatshunoslik insonning tabiat, jamiyat, san'at, tarix va boshqa ijtimoiy va madaniy borliq sohalarida o'z-



o'zini anglash xususiyatini o'rgansa, tilshunoslik tilda dunyo lisoniy manzarasining o'rganadi. Lingvokulturologiyaning asosiy tadqiqot predmeti esa doimiy o'zaro ta'sirlashish holatida bo'lgan ham til, ham madaniyat hisoblanadi.

"Madaniyat" lotincha "Colere" so'zidan olingan bo'lib, "ishlov berish, tarbiyalash, rivojlanish, hurmat qilish, ibodat" ma'nolarini anglatadi. XVIII asrdan boshlab "madaniyat" atamasi inson faoliyatining mahsuli bo'lgan barcha narsalarga nisbatan qo'llanila boshlagan. Bu ma'nolarning barchasi "madaniyat" so'zining qo'llanilishida saqlanib qolgan, ammo aslida bu so'z "insonning tabiatiga maqsadli ta'siri, tabiatning inson manfaatlari uchun o'zgartirilishi, ya'ni yerga ishlov berilishi-qishloq xo'jalik madaniyati degan ma'noni anglatgan. Keyinchalik "madaniyat" degan atama bilimdon, marifatli, yuksak tarbiyali insonlarni tariflashda ishlatila boshlagan. Hozirga kelib "madaniyat" atamasining fan va amaliyotning turli sohalarida 500 dan ortiq variantda ishlatilishi ma'lum.

Umumiy olib qaraydigan bo'lsak, madaniyatga butun tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklar yig'indisi deb ta'rif berishimiz mumkin. Shunga asosan madaniyatning ikki turi farqlanadi:

- 1) moddiy madaniyat;
- 2) ma'naviy madaniyat;

Moddiy madaniyat inson faoliyati tufayli yaratilgan "ikkinchi tabiat", ya'ni ishlab chiqarilish vositalari, mehnat qurollari, mehnat ko'nikmalari, shuningdek, ishlab chiqarish jarayonida yaratilgan hayot uchun xizmat qiladigan barcha boyliklarni anglatadi.

Ma'naviy madaniyatning qamrovi behad keng bo'lib, u ijtimoiy ongning barcha shakllari, ya'ni falsafiy, ilmiy, huquqiy, axloqiy, estetik, diniy qarashlar, maorif, ta'lim-tarbiya, maktab, o'rta va oliy ta'lim, fan, madaniyat muassasalari, ommaviy axborot vositalari, san'at, xalq ma'naviy ijodiyotning barcha turlarini qamrab oladi. Moddiy va ma'naviy madaniyat bir biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, biri ikkinchisini to'ldiradi. Masalan, moddiy boylikning biror turini inson aql-zakovatisiz, tafakkurisiz, aqliy mehnatisiz yaratib va takomillashtirib bo'lmaydi. Bir gap bilan aytganda, moddiy madaniyatni barpo etish zahirida ma'naviy madaniyat ham yotadi. Har qanday moddiy va ma'naviy madaniyat durdonalari inson aqliy va jismoniy mehnati sintezi asosida yuzaga keladi. Ma'naviy ma'daniyat voqealikni badiiy aks ettirish va o'zlashtirish vositasidir. Moddiy madaniyat dunyo va insonlarning moddiy hayot sharoitlari bilan, ma'naviy madaniyat esa urf-odat, rasm-rusm, an'ana, marosim va milliy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Madaniyat qanchalik chuqur va tafsilotlari bilan o'rganilsa, uning inson fikrlashi bilan bog'liq ekanligi yakdil seziladi. Shunday ekan, inson ko'z o'ngida aks etgan voqea-hodisalarni madaniyati orqali ongiga singdirishga hamisha intiladi. Ma'lumki, insonlar ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy tuzumda yashaydilar, u yoki bu milliy tilda so'zlashadilar va ular muayyan milliy ma'naviyat va madaniyatga ega. Milliy ma'naviyat, uni ro'yobga chiqishida muhim o'rin tutadigan til madaniyati va nutq ma'naviyatining o'ziga xos xususiyatlari insonlarning lisoniy kognitiv faoliyatida o'z aksini topadi. Masalan, biror narsadan qo'rqib ketsa emotsional holatni



ingliz ayoli “Oh, my God”, o‘zbek ayoli esa “Voy, o‘lay, Tovba qildim yoki Astag‘furullah!” tarzlarida ifodalaydi. Turli millatlarga mansub bo‘lgan ayollar til madaniyati va nutq ma‘naviyatini qiyosiy tahlil qilish imkonini beruvchi ushbu misoldan ko‘rinib turganidek, to‘saddan sodir bo‘lgan his – hayajonni ifodalashda hech qanday lug‘aviy ma‘noga ega bo‘lmagan “Oh, my God!” undov so‘zidan, o‘zbek ayoli esa bunday holda salbiy ma‘noga ega bo‘lgan “Voy, o‘lay!” yoki “Tovba qildim, Astag‘furullah!” so‘zlarini ishlatadi.

**Xulosa.** Lingvokulturalogik vaziyatning ob'ektiv ko'rinishini olish uchun turli yozuvchilarning matnlarini iloji boricha ko'proq jalb qilish kerak. Shuning uchun lingvokulturologik tahlil murakkab bo'lib, u umumiy filologik tahlilni o'z ichiga oladi, unda til vositalarini janrda baholash va matnning g'oyaviy mazmunini tahlil qilish, kontseptual tahlil usullarini o'z ichiga oladigan lingvistik dunyoqarashning o'ziga xos bo'lagini qayta tiklashga qaratilgan. Binobarin, lingvokulturologik matnni tahlil qilishda uchta jihat - madaniy-mafkuraviy mazmun, kompozitsiya va til ko'rib chiqiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аскольдов, С. А. Концепт и слово [Текст] / С. А. Аскольдов // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М. Academia, 1997. – С. 267–280.
  2. Шведова Н.Ю. Избранные работы. –М. 2005. –С.603.
- Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб...// Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 2012. -№ 5. –Б. 9.